

10-sinf biologiyasi darsligi yangi nashr tahlili

Mamasodiqova.M.M.

mokhigulmuzaffarovna@gmail.com

Temirova.M.U.

temirovamavluda023@gmail.com

Andijon Davlat Pedagogika insituti

Biologiya yo'nalishi talabalari

Annatsiya: Tezisdagi 10-sinf biologiya darsligi yangi 2022-yil nashri bilan eski 2017-yil nashrlari ortasiga farqlari va yangi nashr mavzulari tahlili keltirilgan.

Abstract: The thesis presents the differences between the new 2022 edition of the 10th grade biology textbook and the old 2017 editions and an analysis of the topics of the new edition.

Kalit so'zlar: Biologiya, mavzular, darsliklar, tirik organizm, botanika, zoologiya, odam va uning salomatligi, nashr, o'quvchilar.

Biologiya darsliklarida yer yuzidagi barcha tirik organizmlar tuzilishi, ularda kechadigan jarayonlarni boshqarilish mexanizmlari, nazaryalar va qonuniyatlar keltirilgan. 10-sinf biologiya 2017- yil nashr darsligi A.Ga'furov, A.Abdukarimov, J.Tolipov, O.Ishankulov, M.Umaraliyev, I.Abduraxmonovalar mualliflik qilgan. Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risidagi"gi 187-sonli qaroriga muvofiq, biologiya fanidan kompetensiyaviy yondashuvga yo'naltirilgan davlat ta'lim standarti asosida tayyorlandi. O'uvchilar bu darslikda 5-9 sinflarda o'tilgan botanika, zoologiya, odam va uning salomatli, sitalogiya va genetika asoslari bilantanishgan. 10-sinfda avval o'zlashtirilgan bilimlarni amalda qo'llash, hayot tuzilishini quyidan yuqori tuzilish darajasiga qadar tabiatni yaxlit tizim sifatida qarash, biologik tushuncha, nazariya va qonuniyatlar o'rganadi. Darslik 238 sahifadan iborat, V bob 58-mavzu, 4-laboratoriya

mashg'uloti, atamalar lug'atidan iborat. Asosan IV bob o'tilgan sinf darsligidagi mavzular takrorlash va yangi ma'lumotlar qo'shilib mavzular to'liq ravishda keltirilgan. IV bobda yangi mavzular keltirilib ketilgan. V bob Hayotning tur va populatsiya darajasidagi umumbiologik qonuniyatlar bobi 35 mavzudan 58-mavzugacha. Bu bobdagi mavzular hayotni tur darajasidan boshlab odam paydo bolib rivojlanishigacha evolutsiyasi g'oyalar, nazaryalar va qonunlar keltirilgan. Bu darslikda o'quvchilarga mavzuni mustahkamlashi uchun savol va topshiriqlar, mustaqil bajarish uchun topshiriqlar keltirilgan. [1]

2022 — 2026 - YILLARDA MAKTAB TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA MILLIY DASTURNI TASDIQLASH TO'G'RISIDA (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli [Farmoni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son).

Maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, maktab ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid [davlat dasturiga](#) muvofiq:

Quyidagilar Rivojlantirish dasturining asosiy yo'nalishlari etib belgilansin:

maktab ta'limiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o'quv dasturini to'laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish;

jamiyatda o'qituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib rag'batlantirish;

o'qituvchilarning yoshlarga ta'lim va tarbiya berishdagi mas'uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, ilg'or maktab direktori va namunali o'qituvchi mezonlarini ishlab

chiqish hamda ular asosida rahbar va pedagog kadrlar faoliyatini baholab borish;

umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida maʼnaviy-maʼrifiy ishlarni tizimli tashkil etish, mazkur yoʻnalishda uzluksiz monitoring, baholash va prognozlash mexanizmlarini yoʻlga qoʻyish, bola taʼlim-tarbiyasida oila, ayniqsa, ota-onaning oʻrnini oshirish;

oʻquvchilarning boʻsh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni kasblarga yoʻnaltirish tizimini takomillashtirish;

alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalarning maktabgacha va maktab taʼlimi tizimiga integratsiyasini kuchaytirish hamda inklyuziv taʼlim jarayonlarini jadallashtirish;

(2-bandning sakkizinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli [Farmoni](#) tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)

(2-bandning toʻqqizinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli [Farmoni](#) tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)

umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining navbatlilik koeffitsiyentini optimal darajaga yetkazish, zamonaviy modellar boʻyicha maktablarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal taʼmirlash hamda zarur jihozlar bilan taʼminlash.

umumiy oʻrta taʼlimda barcha maʼlumot almashinuvi jarayonlarini maktabgacha va maktab taʼlimi tizimini boshqarishning yagona dasturiy majmuasi orqali amalga oshirilishini hamda ushbu sohada elektron davlat xizmatlari koʻlamini kengaytirish;

2022-yil nashr etilgan darslikda esa ancha oʻzgarishlar keltirilgan. K.Saparov, I.Azimov, M.Umaraliyeva, U.Raxmatov, Z.Tillayeva, I.Abduraxmanova, E. Ochilov, S.Haytbayevva, I.Uralovalar muallifliklari asosida nashr etilgan. Biologik bilimlar sizlarga olamning ilmiy manzarasini keng anglagan holda kelgusida shaxs sifatida shakllanishingiz, kasb tanlashingiz, ilmiy dunyoqarashingizni kengaytirish hamda ekologik tafakkurga ega boʻlishingizga zamin tayyorlaydi. VII bob 56-mavzu 198-bet 3-labradoriya mashgʻuloti atamalar lugʻatidan iborat. Har bitta bob mavzular

birinchi nazariya mavzu keyin, amaliy mashg'ulot mavzusidan tashkil topgan. [2] Mavzular nazariy o'tilganidan keyin har bitta mavzu mustaqil bajarish uchun amaliy mashg'ulot darslar o'quvchilar o'zlari o'tilgan mavzuni takrorlash qilib o'zlari mustaqil topshiriqlarni bajarib darslarni ya'nada chuqur o'zlashtirishiga yordam beradi. Oldingi darslikdan afzalligi amaliy mashg'ulotlar bilan berilganligi, mavzularga oid rasmlar jadvallar bilan ifodalanganligi. O'quvchilar mavzularni qiziqarli va oson tarzda tushunishlari uchun soddaroq berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.10-sinf biologiya darsligi 2017- yil nashr
- 2.10-sinf biologiya darsligi 2022- yil nashr
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli [Farmoni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)